



O'QUV VA KASBIY FAOLIYAT MOTIVASIYALARI

Farg'ona shahar 1-sonli politexnikum ta'lim ustasi

Olimov Usmonali Ergashevich

Farg'ona shahar 1-sonli politexnikum ta'lim ustasi

Mirzamiddinov Saydullo Qobiljon o'gli

Farg'ona shahar 1-sonli politexnikum ta'lim ustasi

Djamolov Abdushukur Xakimjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy motiv va motivasiya haqida tushuncha beriladi. Pedagogik faoliyatning muhim qismlari, o'quv faoliyati motivasiyasining xususiyatlarini o'rganish ko'nikmalari ko'rib chiqiladi. Xorijiy psixologlar tomonidan kasbiy motiv va motivasiya muammolari haqidagi fikrlari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kasbiy motiv, motivasiya, muqarrarlik motivi, kasbiy faoliyat, ehtiyojning belgi yoki samaralari.

Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida Ye.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi - ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi.

Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi.

Birinchii guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlilari



kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni xohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi.

Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

- 1) Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi),
- 2) Vaziyat bilan bog'liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart-sharoitlarni ruyobga chiqarish).

3) Komformist.

4) Kasbiy motivasiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarini, do'st va tanishlarining maslaxatlari bilan).

L.I.Bamburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

Ijod va musiqa ijro etishga bo'lgan qiziqish.

Musiqadan zavqlanishga bo'lgan ehtiyoj.

Musika asarlarini ijro etishda o'zi tashabbus ko'rsatishga intilish. Tinglovchilarning qadriyatini ko'tarish, ularga rohat baxsh etish xohishi. Albatta yuqoridagilar musiqa ijrochilik faoliyatining to'liq motivlari emas. Ular



faqatgina musikachilik faoliyatini boshlashga olib keladi. A.P.Vasilyev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o'tadi:

- 1) Insonlarni davolash istagi.
- 2) Og'ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og'riqlardan xalos etish istagi.
- 3) O'z yaqinlarining sog'lig'i haqida qayg'urish imkoniyati.
- 4) Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
- 5) O'z sog'lig'i haqida kaygurish.
- 6) Moddiy qiziqishlar.

Kasbiy faoliyat motivlari tuzilishining tavsifnomasi uchun B.N.Dadanov taklif qilgan usullarni qo'llash mumkin. U istalgan faoliyatning sabablari sifatida quyidagi omillarni o'zida aks ettiradi, deb ko'rsatadi:

1. Ayni faoliyat jarayonidan rohatlanish.
2. Faoliyatning to'g'ri natijalari (yaratiladigan maxsulot o'zlashtirilayotgan bilim va xokazo).
3. Faoliyatni rag'batlatirish (maosh, mansabni oshirish, so'z vositasida va xokazo).
4. Bosh tortish xollarida yoki faoliyat yaxshi bajarilmaganda beriladigan jazodan o'zini olib kochishga intilish.

Bu sabablar salbiy "valentlikka" xam ega bo'lishi mumkin. Masalan, faoliyatdan uzoqlashib, qiziqishlarini so'ndirishi mumkin. Salbiy valentlikni maxsus belgi bilan izoxlab, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- T-insonga ish jarayonining mashaqqatli, yoqimsiz bo'lishi;
- R-erishishi kerak bo'lgan natijaga intilishdan uzoqlashish;
- V-ishdan bosh tortish uchun rag'batlantirish-taklif etish;
- G-ayni ish faoliyati uchun jazo belgilashi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlariga kirish va pedagog kasbini tanlash motivlari (o'qituvchi, bogcha tarbiyachisi va b.) turli xil bo'lib, bunda ulardan bir qanchasi



pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Bu jihat anchadan beri pedagogik, jamoatchilik va oliy o'quv yurtlarini o'ylantirib keladi. O'tkazilgan ko'pgina so'rovlar bo'yicha olingan natijalarda (pedagogik oliy o'quv yurtiga kirganlarning) o'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. Taxminan 40 % u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqqani tufayli o'qituvchilik faoliyatiga qiziqmagan xolda 13 % dan 22 % talabalar esa na o'qituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat bildiradi. Ularni oliy o'quv yurtiga kirishidan maksad ayni vaktda xarbiy xizmatdan qochish yoki oliy ta'lim nufuziga ega bo'lish hisoblanadi. Ko'pgina, talabalarning pedagogika o'quv yurtiga kirish sabablari shu dargoxning ularning turar joyiga yaqinligi bo'ladi. Bu ko'rsatkich, bunday moyillik ko'p yillar davomida saqlanib kelmoqda. Bunday hollarda kasb tanlash ko'pgina sharoitlarga bog'liq bo'lib qoladi. Lekin xammasidan oldin kasb tanlashga e'tiborni tortish kerak. Ko'pgina, tanlangan faoliyatlar insonning kobiliyat va moyiligiga muvofik bo'ladi. A.K.Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini o'rganib, ulardan 3 ta asosiylarini birlashtiradi:

- a) muqarrarlik motivi (burchli);
- b) o'qitilayotgan predmetlarning qiziqarliligi va e'tiborni tortish;
- v) bolalar bilan muloqotga kirishish.

Bu motivlarning ustunlik qilish xarakteriga ko'ra mualliflar 4 guruhga mansub o'qituvchilarni ajratadilar:

- Burch xissining ustunligi bilan (43 %);
- o'qitilayotgan fanlarga qiziqishning ustunligi (39 %);
- bolalar bilan muloqotga kirishish ehtiyojining ustunligi (11 %);
- o'zi xohishlarini ruyobga chiqarish motivi.

O'rganilgan manbalarga ko'ra motivasiya tiplari o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan pedagogik talablarining yo'nalishi va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.



Pedagog kasbini o'zlashtirishda kasbiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoj oshadi. V.N.Nikitenko va B.Fidlerlarning ma'lumotiga ko'ra 25-30 yoshli o'qituvchilarda oliy o'quv yurtida o'qiyotgan chog'ida unchalik ahamiyat bermagan pedagogik va psixologik bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj uyg'onar ekan N.V.Jurinin o'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi turli xil omillarga munosabatini o'rgangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning uz kasbi va ish joyidan qoniqishi ba'zilarida birinchi navbatda maktabning moddiy bazasiga bog'liq bo'ladi, boshqalarida esa pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishishga, uchinchi xilida ma'muriyat bilan uzaro aloqa o'rnatishga, turtinchi kishida oylik olish bilan bog'liq bo'ladi.

O'quv faoliyati motivasiyasining xususiyatlarini o'rganishda 2 jihatni farqlab olish lozim:

Birinchi jihat - o'quv faoliyatini tanlash motivasiyasi. Ikkinchisi nima uchun olim aynan shu mavzuni o'rganib chikishga qo'l urgani sababini aniqlash. Fan bilan shug'ullanish bir necha sabablarga bog'liqligi bilan belgilanadi. G.A.Myurrey hokimiyatga intilishning asosiy motivlarini ularning faoliyati bilan bog'lagan holda ajratadi. Ehtiyojning belgi yoki samaralari quyidagi istaklarda namoyon bo'ladi;

1. O'z ijtimoiy olamini boshqarish;
2. Boshqalar xulqiga ta'sir o'tkazish va o'z maslaxatlari bilan yo'lga solish, buyurish, o'z so'ziga ishontirish;
3. O'z e'tikodiga yo'naltirish.

Agar rahbarning bahosi, rahbarlarning o'z natijalarini baholashni shakllantirsa, bu yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda rahbarning tashqaridan beradigan bahosi va xodimlarning o'z-o'ziga beradigan bahosi muvofiq keladi. V.A.Kruteskiy o'spirinlarda uchrash mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:



- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- Vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy kobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;
- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Ilmiy adabiyotlarda motivga turli ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha: Motiv – 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi. Motiv – insonni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi. Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo'qqa chiqaradi. Motiv – bu ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyillik. Motivlar ta'limda samaradorlikka erishishning zarur shartidir. Psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat T. Olport asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqining o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas. O'quv faoliyati motivlari deganda o'quv faolligi namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi. G.Rozenfeld o'qish motivatsiyasining quyidagi omillarini ajratgan. 1. Ta'lim olish uchun o'qish, faoliyatdan qoniqmaslik yoki o'rganilayotgan fanga qiziqmaslik. 2. Ma'lum qiziqishlarsiz o'qish. 3. Ijtimoiy



identifikatsiya uchun o'qish. 4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o'qish. 5. Majburlab yoki qo'rqqanidan o'qish. 6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o'qish. 7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish. 8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim. E. Torndayk o'quv jarayonini u yoki bu qo'zg'atuvchiga (stimulga) javob reaksiyasining holati bilan bog'liqligini, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasidagi ma'lum aloqani o'rnatish bilan izohlanishini aytib o'tadi. Torndayk kishi o'zi xohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ro'yxushlikning hamda o'zi xohlagan reaksiyaga nisbatan bo'lgan moyillikning ta'sirini o'rganishga harakat qiladi. U bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag'batlantirish omillaridan ancha samarasiz va kuchsizdir, degan xulosaga keladi.

J.Bruner o'qish motivlari masalasiga Torndaykdan boshqacharoq yondashadi. U o'zining "O'quv jarayoni" nomli kitobida o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarini e'tirof etgan. E. Deki ichki motivlarni tug'ma, inson tug'ilishiga xos bo'lgan motivlar deb ta'riflaydi. Uning fikricha, hamma insonlar o'zini-o'zi baholashga nisbatan differensiallashmagan zaruriyat bilan tug'iladilar. O'quvchi imkoniyatlarini aniqlash va ularni yuzaga chiqarishdagi samaradorlik o'qituvchining ustaligiga, uning vaqtida yordamga kelishi, o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish mahoratiga bog'liq. D.N.Uznadze boshlang'ich ta'limning bosh vazifasi bolaning ichki kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishi uchun sharoit yaratib berishdan iborat, deb hisoblaydi. Motivlarni tasniflashda keng tarqalgan yo'nalish bu - vaqtni hisobga olishdir. Unga ko'ra: vaziyatli va doimiy namoyon bo'luvchi motivlarni, qisqa muddatli va barqaror motivlarni ajratish mumkin. Motivning tuzilishiga ko'ra: dastlabki – mavhum maqsad mavjud motivlar, ikkinchi – aniq maqsad mavjud motivlarga ajratilgan. Respublikamizda hozirgi kunda o'qish faoliyatidagi motivlar muammolarini o'rganishga qaratilgan



tadqiqot ishlarini olib borilmoqda. Masalan M.G.Davletshin, E. G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullaev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar ta'lim jarayonida o'qish motivlarini o'rganishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. E. G'oziev o'z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilish jarayonining qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai ekanligini aytib o'tadi. A.A.Fayzullaev motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Bu bosqichlar quyidagilar: 1- qo'zg'alishning anglanishi; 2 – motivning qabul qilinishi; 3 – motivning hayotga tatbiq qilinishi; 4 – motivning mustahkamlanishi; 5 - qo'zg'alishning faollashuvi. Birinchi bosqich qo'zg'alishning paydo bo'lishi va anglanishi. E.Z.Usmonova o'zining tadqiqot ishlarida ikki asosiy motivatsiya toifasini ko'rsatib o'tgan: muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi tashqi motivatsiyaga, bilish motivatsiyasini esa ichki motivatsiyaga mansub, deydi. Biz tadqiqotimizda maktab o'quvchilarida yetakchi hisoblanmish o'qish faoliyati motivlarini o'rganishga harakat qildik. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'quv motivlari ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Demak, har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya'ni shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo'ladi va aynan ularning tabiat va zaruriyatiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Trondayk. Protses ucheniya u cheloveka/Per. Ang-M: Izda-o inostrannoy literature. 1993.-317b.
2. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. –T.: 2010-yil. 275-276-betlar.



3. E.L.Desi I d.r. Motivassiya I obrazovaniye 1991 y. 325-326 s.Деси и д.р. Мотивация и образования. 1991 г. 325-326 б.
4. D.N.Uznadze. Psixologicheskiye problem motivasii povedeniya.Tbilisi.: Nauka. 1968 yil 212b.
5. E.G'oziyev O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish.-Toshkent: O'qituvchi. 1988,104 b.